

O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi

O‘zJOKU, “Mediamenejment va mediamarketing” kafedrası
o‘qituvchisi

E-mail: jalolovasarvinoz1996@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston mintaqalarida kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Hududiy ixtisoslashuv, investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, boshqaruv samaradorligi va sanoat kooperatsiyasining iqtisodiy natijalarga ta’siri baholandi. Rasmiy statistik ma’lumotlar asosida kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish hajmi, bandlik, eksport va investitsiya ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar kichik sanoat zonalarini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilganini ko‘rsatdi. Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm hududiy sanoat siyosati samaradorligini oshirish hamda kichik sanoat zonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ilmiy-amaliy asos yaratdi.

Kalit so‘zlar: kichik sanoat zonalarini, hududiy rivojlanish, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, infratuzilma, eksport, bandlik, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация

В статье были исследованы организационно-экономические механизмы совершенствования развития малых промышленных зон в регионах Узбекистана. Были проанализированы влияние территориальной специализации, привлечения инвестиций, развития производственной инфраструктуры, эффективности управления и промышленной кооперации на экономические результаты. На основе официальных статистических данных были оценены показатели промышленного производства, занятости, экспорта и инвестиций малых промышленных зон. Полученные результаты показали, что малые промышленные зоны способствовали развитию региональной промышленности, созданию новых рабочих мест и увеличению экспортного потенциала. Предложенный организационно-экономический механизм сформировал научно-практическую основу для повышения эффективности региональной промышленной политики и обеспечения устойчивого развития малых промышленных зон.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, региональное развитие, инвестиции, промышленная кооперация, инфраструктура, экспорт, занятость, экономическая эффективность.

Abstract

This article examined the organizational and economic mechanisms for improving the development of small industrial zones in the regions of Uzbekistan. The effects of regional specialization, investment attraction, production infrastructure

development, management efficiency, and industrial cooperation on economic performance were evaluated. Official statistical data were used to analyze production output, employment, export performance, and investment indicators of small industrial zones. The findings demonstrated that small industrial zones contributed to regional industrial development, job creation, and export growth. The proposed organizational and economic mechanism provided a scientific and practical framework for improving the effectiveness of regional industrial policy and supporting the sustainable development of small industrial zones through more efficient resource utilization and enhanced industrial competitiveness.

Keywords: small industrial zones, regional development, investment, industrial cooperation, infrastructure, exports, employment, economic efficiency.

KIRISH

Mamlakatimizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish, sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada kichik sanoat zonalari hududiy sanoatni rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda[1]. Kichik sanoat zonalari ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar bo‘yicha oqilona joylashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, sanoat zonalarini samarali tashkil etish hududiy iqtisodiy o‘rnatishni ta‘minlash, sanoat ishlab chiqarishini klasterlash hamda ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, rivojlangan va yangi industrial davlatlar tajribasida sanoat zonalari hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi[3]. Ushbu zonalarda ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi aglomeratsiya samarasi orqali korxonalar faoliyati samaradorligini oshiradi[4].

O‘zbekiston Respublikasida ham kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha zarur normativ-huquqiy baza shakllantirilib, hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta‘minlangan ishlab chiqarish maydonlari barpo etilmoqda hamda tadbirkorlik subyektlariga soliq va moliyaviy imtiyozlar taqdim etilmoqda[5]. Natijada kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish hajmi, investitsiya faolligi va bandlik ko‘rsatkichlarining o‘rnatishiga erishilmoqda[6].

Kichik sanoat zonalarining mavjud faoliyati tahlili ularni rivojlantirish mexanizmlarida qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish samaradorligining yetarli darajada emasligi, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining hududiy xususiyatlarni to‘liq hisobga olmaganligi, boshqaruv tizimida institutsional yondashuvning sustligi hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarining cheklanganligi kichik sanoat zonalarining iqtisodiy natijadorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda[7].

Amaldagi ilmiy tadqiqotlarda kichik sanoat zonalarining faoliyatini baholash asosan alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuv

hududiy sanoat salohiyatidan foydalanish darajasi, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, boshqaruv samaradorligi va investitsion jozibadorlik kabi muhim omillarni kompleks baholash imkonini bermaydi[8]. Bu esa kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston mintaqalarida kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish, hududiy sanoat siyosati samaradorligini oshirish hamda kichik sanoat zonalarining iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi[9].

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy sanoatni rivojlantirish va sanoat zonalarini faoliyatini tashkil etish masalalari iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarishni hududiy jihatdan samarali joylashtirish hamda korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishdagi muhim o'rinni asoslab beradi.

Hududiy raqobatbardoshlik nazariyasiga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishining ma'lum hududlarda konsentratsiyalashuvi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, transport-logistika tizimini optimallashtirish va innovatsion rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi. M.Porterning "raqobat ustunligi" nazariyasida hududiy sanoat klasterlari korxonalar samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi[10]. Ushbu yondashuv hududiy sanoat zonalarini rivojlantirish orqali ishlab chiqarishning yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini kengaytirishni nazariy jihatdan asoslab beradi.

P.Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi aglomeratsiya samarasi orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi[11]. Ushbu nazariyaga ko'ra, sanoat zonalarining shakllanishi korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, mehnat bozorini rivojlantirish hamda infratuzilmadan birgalikda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. M.Fujita tomonidan rivojlantirilgan aglomeratsiya iqtisodiyoti konsepsiyasi ham hududiy ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligi infratuzilma, transport xarajatlari va bozor sig'imi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi[12].


Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat zonalarini iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda sanoat zonalarini investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda samarali vosita ekanligi qayd etilgan[13]. UNIDO tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa sanoat zonalarining muvaffaqiyatli faoliyati, avvalo, zamonaviy infratuzilma, samarali boshqaruv tizimi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi bilan izohlanadi[14]. OECD tadqiqotlarida hududiy sanoat siyosatini amalga oshirishda sanoat zonalarini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim sharti sifatida baholanadi[15].

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham kichik sanoat zonalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish, kichik sanoat zonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda ularni boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda kichik sanoat zonolari hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, bandlikni oshirish va mahalliy sanoatni rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi[16].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks yondashuv asosida takomillashtirish, ularning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda samaradorligini baholash hamda boshqaruv, infratuzilma, investitsiya va moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini o'zaro integratsiyalashgan holda tadqiq etish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan[17]. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularning hududiy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvni ishlab chiqish zamonaviy iqtisodiy sharoitda dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi[18].

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlar kichik sanoat zonalarini rivojlantirish hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda investitsiya faolligini kuchaytirishda muhim institutsional mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Mazkur nazariy qarashlar hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, aglomeratsiya samaralaridan foydalanish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va samarali hududiy sanoat siyosatini amalga oshirish orqali kichik sanoat zonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkinligini asoslab beradi.



1-rasm. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning nazariy asoslari¹

¹ Muallif ishlanmasi

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishga oid mavjud ilmiy qarashlarni tizimli ravishda umumlashtirish va ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish imkonini beradi. Keltirilgan nazariy yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqish uchun metodologik baza bo‘lib xizmat qiladi (1-rasm).

Mazkur konseptual yondashuv kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Unda hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiya faolligini rag‘batlantirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda bandlikni ta‘minlash o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tizimli tarzda yoritilgan. Ushbu holat kichik sanoat zonalarini rivojlantirish jarayonini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot jarayonida kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash va takomillashtirishga qaratilgan metodologik yondashuv ishlab chiqildi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston mintaqalarida kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ilmiy umumlashtirish va grafik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi. Kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, bandlik, eksport va moliyaviy natijalari o‘zaro taqqoslanib baholandi. Olingan natijalar asosida hududiy rivojlanishga ta‘sir etuvchi omillar tizimlashtirildi va kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv hududiy sanoat salohiyatidan samarali foydalanish, investitsiya faolligini oshirish hamda boshqaruv samaradorligini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflarni shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik sanoat zonalarining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va ularning faoliyat samaradorligini baholashda iqtisodiy-statistik ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar kichik sanoat zonalarining ishlab chiqarish salohiyati, investitsiya jozibadorligi, bandlikni ta‘minlashdagi roli hamda moliyaviy natijalarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlari asosida kichik sanoat zonalarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda tahlil qilindi.

1-jadvalda kichik sanoat zonalarining mamlakat sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish va aholi bandligini ta‘minlashdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalarini soni 423 tani tashkil etib, ularda 3 272 ta

rezident korxonalar faoliyat olib bormoqda. Mazkur holat kichik sanoat zonalari hududiy sanoatni rivojlantirishning muhim institutsional shakliga aylanganligini anglatadi

1-jadval

**O‘zbekistonda kichik sanoat zonalarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
2025-yil¹**

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Qiymatlar
Kichik sanoat zonalari soni	ta	423
Rezident korxonalar soni	ta	3 272
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	mlrd so‘m	18 096,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd so‘m	1 325,6
Hisobot davri oxirida bandlar soni	kishi	40 021
Yangi yaratilgan ish o‘rinlari	ta	10 665
Eksport hajmi	mlrd so‘m	4 538,9
Foyda (solig to‘langunga qadar)	mlrd so‘m	836,0

Kichik sanoat zonalarida 2025-yil yakunlari bo‘yicha 18 096,0 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilganligi ularning ishlab chiqarish salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va mavjud resurslardan samarali foydalanish natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmi ortib borayotganligini ifodalaydi. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining 1 325,6 mlrd so‘mni tashkil etishi kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligi ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Bandlik ko‘rsatkichlari tahlili kichik sanoat zonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Hisobot davri oxiriga kelib mazkur zonalarda 40 021 nafar aholi bandligi ta‘minlangan bo‘lsa, yil davomida 10 665 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Bu esa hududlarda mehnat bozorini barqaror rivojlantirish hamda aholi daromadlarini oshirishda kichik sanoat zonalari muhim omil bo‘lib xizmat qilayotganligini ko‘rsatadi.


Kichik sanoat zonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki ham ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Eksport hajmining 4 538,9 mlrd so‘mni tashkil etishi ushbu zonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini va tashqi bozorlarga yo‘naltirilayotganligini anglatadi. Bu esa kichik sanoat zonalarining eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali valyuta tushumlarini oshirishdagi rolini tasdiqlaydi.

Moliyaviy natijalar tahlili kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarining iqtisodiy jihatdan barqaror ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, foyda solig‘i to‘langunga qadar olingan foydaning 836,0 mlrd so‘mni tashkil etishi ishlab chiqarish faoliyatining rentabelli ekanligini bildiradi. Mazkur holat kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, infratuzilmadan samarali foydalanish va davlat tomonidan yaratilgan imtiyozli shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy samaradorlikka erishilayotganligini ko‘rsatadi.

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan www.stat.uz

Olib borilgan tahlillar kichik sanoat zonalarida mamlakatda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, investitsiya faolligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o‘rin tutayotganligini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘rsatkichlar kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish orqali ularning hududiy iqtisodiyotdagi samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Kichik sanoat zonalarining iqtisodiy faoliyat natijalarini yanada aniqroq tasavvur qilish maqsadida ularning asosiy ko‘rsatkichlari tarkibi grafik ko‘rinishda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar miqdori, eksport salohiyati hamda moliyaviy natijalar o‘rtasidagi nisbatni baholash imkonini beradi. Kichik sanoat zonalarida faoliyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Kichik sanoat zonalarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tarkibi¹

Kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish faoliyati ustuvor yo‘nalish hisoblanishini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 18 096,0 mlrd so‘mni tashkil etib, boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi mazkur zonalarining, avvalo, real sektorni rivojlantirishga xizmat qilayotganligini anglatadi. Bu esa hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va sanoat mahsulotlari hajmini oshirish orqali iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash imkonini bermoqda.

Investitsiyalar hajmining 1 325,6 mlrd so‘mni tashkil etishi kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda infratuzilmani rivojlantirish jarayonlari izchil amalga oshirilayotganligini

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan www.stat.uz

ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining ishlab chiqarish hajmiga nisbatan past ulushga ega ekanligi kelgusida investitsion faollikni yanada oshirish zarurligini bildiradi.

Eksport hajmining 4 538,9 mlrd so'mga yetgani kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh ekanligini ko'rsatadi. Bu esa kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va valyuta tushumlarini oshirish imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi.


Moliyaviy natijalar tahlili kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan 836,0 mlrd so'm foyda olinganligini ko'rsatib, mazkur zonalarida ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini anglatadi. Foyda miqdorining ijobiy bo'lishi yaratilgan infratuzilma, berilgan soliq va bojxona imtiyozlari hamda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan mexanizmlar natijasida erishilganligini ko'rsatadi.

Grafik tahlili kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish hajmi yetakchi o'rin egallayotganligini, investitsiya va eksport ko'rsatkichlari esa ularning barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar ulushini oshirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kichik sanoat zonalarini faoliyatining amaldagi holati tahlili ularni rivojlantirishda ishlab chiqarish hajmini oshirish, investitsiya faolligini kuchaytirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish hamda bandlik darajasini oshirish o'zaro uzviy bog'liq jarayonlar ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishlarda erishilgan natijalarni yanada barqarorlashtirish kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etishni talab etadi. Xalqaro tajriba sanoat zonalarini samarali rivojlantirishda institutsional boshqaruv, investitsiyalarni rag'batlantirish, infratuzilmaviy ta'minot va hududiy sanoat siyosatini o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda [19].

Mazkur yondashuvlar asosida kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu mexanizm hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'paytirish hamda aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi (4-rasm).

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tizimli asosda amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur mexanizmning markaziy elementi sifatida boshqaruv, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarining o'zaro integratsiyasi nazarda tutilgan. Ushbu omillar hududiy sanoat siyosatini samarali amalga oshirishda asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi [20].



4-rasm. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹

Mexanizmning amaliy ahamiyati shundaki, u kichik sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlarini keng joriy etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi ortadi, mahalliy byudjetlar daromad bazasi kengayadi va aholi bandligi ta'minlanadi.

¹ Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur mexanizm hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni qisqartirish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish hamda kichik sanoat zonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida kichik sanoat zonalarini hududiy sanoatni rivojlantirishning barqaror “o‘shish nuqtasi”ga aylantirish imkonini beradi.

Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni amaliyotga joriy etish kichik sanoat zonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini kuchaytirish uchun zarur tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O‘zbekiston mintaqalarida kichik sanoat zonalarini rivojlantirish hududiy iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, investitsiya faolligini oshirish hamda aholi bandligini ta‘minlashning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Amalga oshirilgan iqtisodiy-statistik tahlillar kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar miqdori, eksport salohiyati va moliyaviy natijalar ijobiy tendensiyaga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa mazkur zonalar hududiy sanoatni rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida shakllanayotganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot jarayonida kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarurligi asoslab berildi. Xususan, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini kengaytirish kichik sanoat zonalarining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy yo‘nalishlar ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm kichik sanoat zonalarini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning yangi manbalarini jalb etish, zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish va yangi ish o‘rinlarini tashkil etish imkonini beradi. Mazkur mexanizmni amaliyotga joriy etish natijasida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksportbop mahsulotlar ulushini ko‘paytirish va mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirishga erishish mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishda hududiy ixtisoslashuvni hisobga olgan holda sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish mexanizmini takomillashtirish.
2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish.
3. Kichik sanoat zonalarining muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish.
4. Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali mahalliy xomashyo resurslaridan foydalanish darajasini oshirish.

5. Kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarni eksport faoliyatiga keng jalb etish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish.

6. Kichik sanoat zonolari faoliyatini baholashda integrallashgan ko'rsatkichlar tizimini amaliyotga joriy etish.

Taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini boyitadi hamda ularning hududiy iqtisodiyotdagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvdan hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqishda, investitsiya dasturlarini shakllantirishda hamda kichik sanoat zonolari faoliyatini strategik rivojlantirishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishga oid qarorlari. - Toshkent, 2017-2024.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kichik sanoat zonolari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari. - Toshkent, 2017-2024.

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari, texnopark va klasterlar faoliyati bo'yicha statistik to'plam. - Toshkent, 2026.

4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990.

5. Krugman P. Geography and Trade. - Cambridge, MA: MIT Press, 1991.

6. Fujita M., Krugman P., Venables A.J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. - Cambridge: MIT Press, 1999.

7. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.

8. OECD. Industrial Parks and Regional Development: Policy Lessons. - Paris: OECD Publishing, 2019.

9. UNIDO. Industrial Parks for Inclusive and Sustainable Industrial Development. - Vienna, 2020.

10. World Bank. Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts. - Washington DC, 2017.

11. Asian Development Bank. Asian Economic Integration Report. - Manila, 2018.

12. Ismailov B.X. Hududiy sanoat siyosatini takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmlari. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.

13. Xolmatov N.Sh. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2020. - №4.

14. Zaynutdinov Sh.N. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda sanoat zonalarining o'rni // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. - 2022. - №2.

15. Abdullayev Q.A. Sanoat infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari. - Toshkent: Fan, 2019.

16. Rasulov A.R. Investitsiya jarayonlarini hududiy boshqarish. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

17. Karimov J.T. Hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. - Toshkent, 2020.

18. Mamurov D.E. Sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishning ustuvor yoʻnalishlari // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. - 2021. - №3.

19. Farole T. Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. - Washington DC: World Bank, 2011.

20. Rodrik D. Industrial Development: Stylized Facts and Policies // Harvard University Working Paper. - 2006.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**